



jild. 3 No 2 (2026)

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



journals@timeedu.uz



+998 95 651 90 00

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI



**“MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA
RAQAMLI INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



FARG'ONA-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI

"MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR:

ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR" MAVZUSIDAGI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

21 MAY 2026 YIL



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН

ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ И ЭКОНОМИКИ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ

«ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В

ИНЖЕНЕРИИ: СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

21 МАЯ 2026 ГОДА



MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF

UZBEKISTAN

TASHKENT INSTITUTE OF MANAGEMENT AND ECONOMICS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME "ARTIFICIAL

INTELLIGENCE AND DIGITAL INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGINEERING: MODERN

SOLUTIONS AND PROSPECTS" 21 MAY 2026

“Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami. 2026-yil 21-may.

Ushbu to‘plamda — “Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy –amaliy anjuman ishtirokchilarining tezislari keltirilgan. Anjuman kun tartibiga kiritilgan masalalar dolzarb bo‘lib, u yalpi ma’ruzalar va amaliy zamonaviy muhandislik ta’limida raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt, muhandislik yechimlari va sanoat 4.0, robototexnika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish, ta’limda axborot va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi, biznes jarayonlar va raqamli iqtisodiyotga axborot texnologiyalarining o‘rni kabi sho‘balardan tashkil topgan. To‘plam sohasi mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Maqolalarda keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldir.

©Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ TMII_ilmiy_bolim

Tahririyat jamoasi

BOSH MUHARRIR:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li

TAHRIR HAY'ATI

1. Sharipov Qo'ngratbay Avezimbetovich — O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, tfd, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, ifn, dotsent.
3. Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich — O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiyasi, ifd, professor.
4. Xotamov Ibodullo Sadulloyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini professori, ifn.
5. Sultonov Mansur Qilichovich — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi ekspertlar guruhi rahbari, tffd, dotsent.
6. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich — "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.
7. Popkova Yelenadyevna — Rossiya Gen "Ilmiy aloqalar instituti" avtonom notijorat tashkiloti prezidenti, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
8. Dr Go Khang Ven — Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori.
9. Wang Cheng — XXR "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" instituti iffd, dotsent.
10. Xakimova Nilufar Karimkulovna — O'zMU huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti PhD, ilmiy xodimi.
11. Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Biznes boshqaruvi va moliya kafedrasini ifd, professor.
12. Chariyev Qurbon Amirovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini professori, ifd.
13. Abduraimova Nigora Radjabovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini dotsenti, iffd.
14. Anarqulova Gulnaz Mirzaxmatovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini professori, ifn.
15. Yakubov Sadirjan Bakiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini professori, ifn.
16. Kadirova Istora Bobirovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, iffd, dotsent.
17. Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, iffd, dotsent.
18. Mamatov Narzullo Solidjonovich — "TIQXMMI" MTU kafedra mudiri, texnika fanlari doktori, professor.
19. Turaqulov Otabek Xolmirzayevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri, tffd, dotsent.
20. Toirov Shuxrat Abduganiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini professori vb, tffd.
21. Yusupov Rustam Abdimuratovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, tffd.
22. Nazarov Xolmo'min Abduxobovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, fmf.
23. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o'g'li — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, tffd.
24. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini dotsenti, fffd.

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORLARGA OLIB CHIQISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH

Daminova O'.

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti PhD.

Pulatov Sh.

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari importini ham, eksportini ham faol tartibga soladi, ammo bozordagi keskin qarama-qarshiliklar tufayli bu jarayon juda ziddiyatli. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha O'zbekiston strategiyasini ishlab chiqish masalasi dolzarbdir. Tadqiqotda strategik qarorlarning sifati, kompaniyani rivojlantirishning maqbul strategiyasini tanlash va tanlangan strategiyani amalga oshirishning samarali algoritmini ishlab chiqish korxonalarning salohiyatini ro'yobga chiqarish va foydani maksimal darajada oshirishni aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi tarmog'i, rivojlanish strategiyasi, qishloq xo'jalik mahsulotlari, eksport, xalqaro bozor, fermer xo'jaliklari.

Аннотация. Практически все страны мира активно регулируют как импорт, так и экспорт сельскохозяйственной продукции, однако из-за острых противоречий на рынке данный процесс носит весьма противоречивый характер. Разработка стратегии экспорта сельскохозяйственной продукции в Узбекистане является актуальной задачей. В исследовании основное внимание уделяется оценке качества стратегических решений, выбору оптимальной стратегии развития компании и разработке эффективного алгоритма реализации выбранной стратегии с целью раскрытия потенциала предприятий и максимизации прибыли.

Ключевые слова: сельскохозяйственная отрасль, стратегия развития, сельскохозяйственная продукция, экспорт, международный рынок, фермерские хозяйства.

Abstract. Almost all countries in the world actively regulate both the import and export of agricultural products; however, due to sharp contradictions in the market, this process remains highly controversial. The development of an export strategy for agricultural products in Uzbekistan is a pressing issue. The study focuses on assessing the quality of strategic decisions, selecting an optimal development strategy for companies, and designing an effective algorithm for implementing the chosen strategy, with the aim of realizing enterprise potential and maximizing profits.

Keywords: agricultural sector, development strategy, agricultural products, export, international market, farming enterprises.

KIRISH

Globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i aholini oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, jahon aholisining oxirgi 20 yillikda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojlari o'rtacha yiliga 5-7 foizga o'sib bormoqda. Ushbu jarayonda Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Yaponiya va Isroil davlatlari tajribalarida tarmoqda ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish, ilg'or innovatsiyalarni joriy etish, tarmoqni iqtisodiy-statistik tadqiq etish orqali qabul qilingan davlat dasturlarini ijrosini ta'minlash, ularni tizimli shakllantirish, agrar sektorni klasterlash kabi zamonaviy shakllarda xo'jalik yuritish amalga oshirib kelinmoqda.

Jahon iqtisodiyotida olib borilayotgan tadqiqotlarda agrar sektorni iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, jahonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi aholi soni va ularning talablari o'sishidan orqada qolayotganligi mazkur masala o'z ilmiy yechimini topa olmayotganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan ham agrar sektorni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish, ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni kompleks statistik tadqiq etish, raqobatbardoshligini ta'minlash yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida erishilgan yutuqlar natijasida g'alla mustaqilligiga erishildi, paxtachilik, to'qimachilik sanoati bilan mutanosib tarzda meva-sabzavotchilik sohasi ham tezkor rivojlanib borayotgan sohalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Hozirgi sharoitda tarmoq oldida turgan asosiy vazifa - qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini keskin oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini yanada yaxshilash, yuqori eksport salohiyatiga hamda tejamkor zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishishdan iborat. Bu esa o'z navbatida paxta, don, meva-sabzavotchilik, poliz ekinlari va uzum navlaridan to'g'ri foydalanish, ularni yetishtirish texnologiyasiga qat'iy rioya qilish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini muntazam oshirib borish hamda

mehnatni to'g'ri tashkil etish, tuproq-suv, harorat-intensiv omillardan yanada to'laroq foydalanishga, qishloq xo'jaligi sohasini rivojlanishini, shuningdek qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini statistik jihatdan o'rganish va ularning rivojlanishini statistik jihatdan baholash masalalarini chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Bizning fikrimizcha, agrar sektorning asosiy afzallik jihati 90 dan ortiq bo'lgan muhim iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlanishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, sanoat tarmog'ining iqtisodiyotini rivojlanishini, yalpi qo'shilgan qiymatini qishloq xo'jaligi tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuningdek, aholini toza, sifatli oziq ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda tarmoqning o'rni yuqori sanaladi.

Mustaqil davlat hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlarining ham ilmiy izlanishlarida qishloq xo'jaligi tarmog'i va uning sohalarini rivojlanishining statistik tadqiqi va ekonometrik modellash tirish hamda prognozlash masalalari keng o'rin egallaydi. Jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim B.I.Smaginning ilmiy tadqiqot ishida agrar ishlab chiqarish sohasi statistik qonuniyatlari va ekonometrik modellarga amal qilish masalalari ilmiy o'rganilgan bo'lsa, V.N.Afanas'ev, A.I.Markovaning ilmiy asarida qishloq xo'jalik statistikani tashkil etish, qishloq xo'jalik korxonalari statistikasi, dehqonchilik statistikasi masalalari keng ilmiy tadqiq etilgan. Rossiyalik olimlar A.V.Glotko, C.M. Rijkova larning ilmiy tadqiqot ishlarida qishloq xo'jaligi sohasining hududiy tashkil etish va ularning bozorlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kritin Elizabez Devis ilmiy tadqiqotlarida oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi, jumladan, fermer xo'jaliklari menejmenti ilmiy tadqiq etilib, kichik fermer xo'jaliklarining o'ziga xos jihatlari, kamchiliklari, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik masalalari, ushbu hamkorlikning iqtisodiy jihatlari, fermer xo'jaliklari faoliyatini texnik taraqqiyotga o'tishi va transfer texnologiyalarini joriy etish falsafasi, fermerlik guruhlari tashkil qilish, ularning afzalliklari tadqiq qilingan.

Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, Jan Matis Shurbaxning ilmiy tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi tarmog'ining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda (yalpi ichki mahsulot, yalpi qo'shilgan qiymat) tutgan o'rni, oziq-ovqat xavfsizligi masalalari, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni (shu jumladan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni) jalb etish evaziga agrar sektor xo'jaliklari faoliyatini iqtisodiy rivojlantirish, fermer xo'jaliklari faoliyatidagi hamkorlik masalalari va ular orqali fermer xo'jaliklarining imkoniyatlari, afzalliklari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklari statistik modellar asosida o'rganilgan va tegishli ilmiy xuloslar chiqarilgan.


METODOLOGIYA

Ushbu maqolada biz mavzu bo'yicha tadqiqotlarni o'rganib chiqdik va tahlil qildik, so'ngra o'rganilishi va hal qilinishi kerak bo'lgan savollarni shakllantirdik. Ushbu savollarga asoslanib, biz aktsiyadorlik jamiyati va korxonalaridan ma'lumot to'pladik. Biz tanlagan tadqiqot usullari va tahliliy usullaridan foydalangan holda to'plangan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilamiz. Natijalar va qarorlar asosida tahlil qilamiz va xulosa qilamiz. Ushbu xulosalar asosida nazariy va amaliy takliflar, shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yetishtirilayotgan mevasabzavot mahsulotlari iqlim sharoitining juda qulayligi tufayli mana shunday noyob bulganligi uchun xam jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida yukori darajada raqobatbardoshdir.

Bugungi kunda O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'ta qimmatli navlarini yetishtirish va qayta ishlash, ularni eksport qilish sohasida katta salohiyatga ega. Agrar sektorda eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uni kayta ishlaydigan sanoatni yetakchi o'ringa ko'tarish qishloq xo'jaligida barkaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ushbu vazifani xal kilish, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bir necha bor ta'kidlaganidek, qishloq xo'jaligi mahsulotining sifatini xamda uni kayta ishlaydigan korxonalarning samaradorligini oshirishni, ichki va tashki sotish bozorlarini yanada kengaytirishni talab qilmoqda. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ini rentabelli tarmoqqa aylantirish uchun respublika hududlarida barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat fermer xo'jaliklari mutaxassislaridan ilmiy jihatdan asoslangan dehqonchilik tizimi ilg'or texnologiyasini joriy etish, yangi, serhosil nav hamda duragaylarni ekish, kadrlarning malakasini doimo oshirib turish, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari statistik jihatdan chuqur tadqiq etish hamda ularning faoliyatini takomillashtirish talab etiladi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini faoliyatini yanada rivojlantirishda statistik tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Fermer xo'jaliklarini statistik tadqiq etishda ularni belgilari bo'yicha tasniflash alohida o'rin tutib, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini tasniflashning quyidagi varianti taklif etiladi (1-rasm).



1- rasm. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining namunaviy tasnifi

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligi tarmog'ida statistik axborotlarning bazasi quyidagilardan iborat bo'lishligi lozim. Ya'ni:

- davlat statistika idoralarining maxsus tashkil etilgan kuzatuv ma'lumotlari;
- fermer xo'jaliklarining 1-fx yillik va choraklik davlat statistika hisoboti
- fermer xo'jaliklarining moliyaviy hisobotlari.

Tadqiqotlar asosida qishloq xo'jaligi tarmog'ida statistik axborot tizimi hal etadigan masalalar quyidagilarni o'z ichiga olishini tavsiya etamiz:

- statistik ma'lumotning mazmuniy qismini aniqlash, ya'ni qaysi axborot
- sohaga doir qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tanlab olishda yordam berish;
- haqqoniyli) hamda kerakli ma'lumotlarni olish xarajatlari o'rtasida eng qulay
- statistik ma'lumotlarni olish tartibi reglamentini ishlab chiqish;
- statistik ma'lumotlarga ishlov berish, ularni tahlil qilish, saqlash, yig'ish,

Olib borilgan tadqiqotlar asosida fermer xo'jaliklari tomonidan statistik idoralariga taqdim etilayotgan statistik axborotlarni yetarli darajada aniq va ishonchli, deb bo'lmaydi. Viloyat bo'yicha olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalari va meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining davlat statistik hisoboti axborotlari asosida yer resurslaridan boshqa fermer

xo'jaliklarining mahsulot yetishtirish bilan bog'liq ko'rsatkichlarida ularni yaqqol ko'rish mumkin.

Tadqiqotlar asosida mazkur davlat statistika hisobot shaklidagi ayrim noaniqliklarni yillik daromad ko'rsatkichi misolida ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

Andijon viloyati fermer xo'jaliklari yillik daromadlarining statistik hisobot va sotsiologik tadqiqotlar bo'yicha qiyosiy taqsimoti

Fermer xo'jaliklarida yillik daromadlarning guruhlanishi	Jamiga nisbatan foiz hisobida, %	
	Statistik hisobotlar asosida	Sotsiologik tadqiqotlar asosida
100 mln.so'mgacha	54	47
100-250 mln.so'mgacha	25	21
250-500 mln.so'mgacha	14	21
500 mln.so'mdan yuqori	7	11
Jami	100	100

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklari faoliyatida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlardan biri hisoblangan daromad ko'rsatkichining statistik hisobot va sotsiologik tadqiqotlar o'rtasida farqning mavjud ekanligi, bizningcha, quyida keltirilganlardan biri sabab bo'lishi mumkin: birinchidan, fermer xo'jaliklari o'z daromadlarini oshkor ko'rsatmasligi, axborotlarni yashirishi; ikkinchidan, hisobotlarda statistik axborotlarni aks ettirish bo'yicha malakasining past darajadali; uchinchidan, hisobotning mevasabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatida foydalanilmaydigan (8, 9, 10, 11) bo'limlari mavjudligi; to'rtinchidan, statistik axborotlarni to'plash, qayd etish, kuzatish, hisobga olish va nazorat qilishning markazlashgan mexanizmi mavjud emasligisabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish sohasida hududlarning alohida tarmoq xususiyatlari va ularning rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlarni o'rganish yaxlit hududning tarkibiy tahlili aniqligini oshiradi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishida bugungi kungacha qishloq xo'jaligi tarmog'ining ulushi asosiy tarmoq va sohalar qatorida sezilarli ulushga ega bo'lsa-da, amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi ortib borgan holda ulushi pasayib bormoqda. Bunday o'zgarishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodiyotning milliy va hududiy kesimida sanoat, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarining jadal sur'atlarda rivojlanayotganligini ko'rsatib o'tish mumkin.

2-jadval

Andijon viloyatida 2021-2025 yillardagi asosiy makro (mezo) iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishi, mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so'm	734 587,7	888 341,7	1 066 569	1 536 254	1 849 650
Viloyat yalpi hududiy mahsuloti (mlrd. so'm)	43 790,8	54 464,0	68 223,4	90 522,1	107 717,6
Mamlakat ko'rsatkichidagi ulushi (%)	6,0	6,1	6,4	5,9	5,8
Milliy iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	245 462	269 919	352 100	493 700	591 141
Viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	12143,7	14758,6	18 171,4	28132,2	32 909,9
Mamlakat ko'rsatkichidagi ulushi (%)	4,9	5,5	5,2	5,7	5,7
Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm	302 524,9	347 564,4	404 648,6	444 586,4	508 711,1
Yalpi hududiy qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm	30 785,8	35 811,3	41 278,6	44 374,9	50 263,3
Mamlakat ko'rsatkichidagi ulushi (%)	10,2	10,3	10,2	10,0	9,9

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va Andijon viloyatining hududiy ko'rsatkichlari tahlili viloyat iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini aniqroq ko'rish imkonini beradi.

Yuqoridagi tadqiqotlarda qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishini makro va mezo darajada iqtisodiy-statistik tahlil qilish nazariy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, bugungi kungacha mamlakatimiz hududiy birliklari qishloq xo'jaligi tarmog'i mezo darajada chuqur tahlil qilinib, undagi o'zgarish tendentsiyalarini aniqlash asosida hududiy tarmoq rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilash bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Andijon viloyati mamlakat qishloq xo'jaligi tarmog'ida Samarqand va Toshkent viloyatidan keyin eng ko'p miqdordagi qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiruvchi hududiy birlik bo'lib, yillar davomida yetishtirilgan hududiy yalpi

qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi barqaror o'sib borish tendentsiyasiga ega bo'lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy sharoitlarda qishloq ho'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorlarga chiqishi metodologiyasini ishlab chiqish maqsadida qishloq ho'jalik korxonasi faoliyati ko'rib chiqildi. Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar hal qilindi: Birinchidan, ishda qishloq ho'jalik korxonaning xalqaro bozorlarga chiqishi mumkin bo'lgan strategiyalar tasnifi keltirilgan, ularning turlari va kompaniya strategiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Xalqaro bozorga chiqishning asosiy strategiyalari eksport, qo'shma yoki sho'ba korxona tashkil etish, noldan yangi korxona yaratish, shuningdek, franchayzingdir.

Ikkinchidan, qishloq ho'jalik korxonasi uchun maqbul va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategiyani aniqlash maqsadida, uning raqobatdosh ustunliklari va strategik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida qishloq ho'jalik korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini har tomonlama tahlil qilish amalga oshirildi. Ta'kidlash joizki, kompaniya sezilarli ishlab chiqarish quvvatlariga, shuningdek, o'zining mahsulot yetkazib beruvchisiga, tayyor mahsulotlarni saqlash uchun omborlar majmuasiga va transport uchun logistika kompaniyasiga ega. Qishloq ho'jalik korxonasining asosiy ustunligi - o'z infratuzilmasi, investitsiya salohiyati, shuningdek, sotilgan mahsulotlarning sifati. Ta'kidlash joizki, kompaniya barcha iste'molchilarning xohish-istaklarini, shu jumladan sog'lom turmush tarzini biluvchilar uchun paaxta tabiiy mahsulotlar va mahsulotlar qatorini qamrab oladigan yetarlicha keng brend portfeliga ega. Xitoy va Turkiya bozorlari kompaniya faoliyati uchun potentsial tashqi bozorlar sifatida belgilandi. Bu mamlakatlar bozor salohiyati, iste'mol talabi va aholining yuqori to'lov qobiliyatiga ega. Shu bilan birga, Yevropa bozorlariga kengayish dunyodagi hozirgi geosiyosiy vaziyat tufayli murakkablashayotganini hisobga olish kerak. Qishloq ho'jalik korxona uchun Yevropa sifat standartlariga rioya qilish va tashqi bozorlarga kengayishni yanada kengaytirish imkoniyatidir.

Qishloq ho'jalik korxonasi miqyosda tejamkorlikka erishish qobiliyatiga ega, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi. Shunday qilib, mamlakat bozorlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qaraganda arzonroq narxlarda va kengroq turdagi mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo'lib, bu korxoanning chet el bozorlariga chiqish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR

- ‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2017 y.
- ‘zbekiston Respublikasining “Fermar xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. // Oliy majlis axborotnomasi. – T., 2004. №9. – B. 22-35.
- Darslik. – T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 122 b
- магин Б.И. Экономический анализ и статистическое моделирование аграрного производства. Монография. / – Мичуринск: Изд-во МичГАУ, 2007. – с.23.
- Афанасьев В.Н., Маркова А.И. Статистика сельского хозяйства: Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2002. - 272 с.
- Глотко А.В. Формирование и развитие кластера садоводства в региональном АПК (теория, методология, практика). Авт. дис. на соиск. учён. степ. докт. экон. наук. Новосибирск. 2010, 47 с.;
- ыжкова С.М. Развитие рынка плодово-ягодной продукции (на материалах Тамбовской области). – М.: 2010. - 25 с.

MUNDARIJA		
1-SHO'BA: ZAMONAVIY MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT		6
<i>Turakulov O Asrayev M Karimov E</i>	QISHLOQ VRACHLIK PUNKTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING RO'LI	6
<i>G'oiipova Kh</i>	VOICE ANALYSIS TECHNOLOGIES SPECIAL ALGORITHMS AND ARTIFICIAL INTELLECT MODELS	11
<i>G'oiipova Kh</i>	SECURITY MECHANISMS BASED ON VOICE AND VIDEO SYNTHESIS	17
<i>Sh.A.Toirov, T.E.Xudoyqulov</i>	METHODS AND SOLUTIONS FOR GENERALIZING AMPLITUDE AMPLIFICATION IN QUANTUM ALGORITHMS	23
<i>Rizayev X</i>	MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA AUTOCAD DASTURIDAN BIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN REVIT DASTURIGA O'TISHNING DIDAKTIK AFZALLIKLARI	27
<i>Turakulova Sh</i>	KO'Z TUBI TASVIRLARIDA QON TOMIR TARMOQLARINING DIAMETRI, EGRI-BUGRILIGI VA TARMOQLANISH BURCHAKLARI ASOSIDA DIAGNOSTIK TAHLIL	34
<i>Turakulov O, Jumaboyev D</i>	IJTIMOIIY TARMOQ YOZISHMALARIDAGI HISSIYOTLARNI TAHLILLASH MODELII	45
<i>X.T. Dusanov</i>	SUN'IY INTELLEKT ALGORITMLARI ASOSIDA TASVIRLAR SIFATINI OSHIRISH	49
<i>Yusupov R.A.</i>	YER OSTI SUVLARI GIDROSFERASI HARAKATINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MODELLASHTIRISH	56
<i>Erhanova N</i>	BOLALARNING NUTQINI O'STIRISH ORQALI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	64
<i>S.A. Olimov</i>	TA'LIM TIZIMIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH JIHATLARI	70
<i>Shadmanov S</i>	SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	77
2-SHO'BA: MUHANDISLIK YECHIMLARI VA SANOAT 4.0		82
<i>Норматов Ш, Туражонов К,</i>	МЕТОД ОЦЕНКИ УСТОЙЧИВОСТИ ОТКОСОВ И УСТУПОВ КАРЬЕРА	82

Логинов П, Акбаров Н		
Егорова В.В.	ЖИВУЧЕСТЬ И ТЕХНИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ КАРКАСА ЗДАНИЯ В РЕЗУЛЬТАТЕ ОСОБОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ	89
Ochilova I	O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA GENDER TENGLIK INDIKATORLARINI RAQAMLI MONITORING QILISH MEXANIZMLARI	104
Axmedov X, Sharipov K	KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA ZAMONAVIY TAHLIL METODLARINING AHAMIYATI	109
Khidirova D	TOWARDS TRUSTWORTHY WILDFIRE DETECTION: INTEGRATING EXPLAINABILITY AND UNCERTAINTY IN DEEP LEARNING MODELS	113
Axmedov X, Sharipov K	RAQOBAT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH ASOSIDA KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	120
Narbayev Sh, Abduqayumov A	DAVLAT KORXONALARIDA ESG STANDARTLARI ASOSIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	126
Omonturdiyev O	SIFATLI NOTO'QIMA MATO OLISH UCHUN JUN TOLASINI CHO'TKALI BARABAN ORQALI SAMARALI TOZALASH VA UZATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI	132
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIY MODERNIZATSIYA JARAYONIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	143
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA KORXONALARDAGI MOLIVAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	147
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI BOSHQARISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	158
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	166

<i>R.M. Tursunova, M.E. Tursunov, G. Abduraxmanov, A.T. Dexqonov, Sh.M. Norbekov, D.R. Jumaboyev</i>	LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHASIDA SIZIB O'TISH BUSAG'ASIGA TEXNOLOGIK OMILLAR TA'SIRI	173
3-SHO'BA: ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARI		179
<i>Asrayev M, Tursunaliyeva O</i>	HTTP GET ORQALI SERVERGA ULANISH.	179
<i>M.E. Tursunov, Sh.M. Norbekov</i>	AVTOMOBILLAR UCHUN PELTIER EFFEKTI ASOSIDAGI MINI AQLLI SUV SOVITISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ ETISH	188
<i>Yakubov S, Xasanova Sh.</i>	ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI INTELLEKT	194
4-SHO'BA: KIBERXAVFSIZLIK VA MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH		201
<i>Sh.A.Toirov, A.A.Seytnazarova, T.E.Xudoyqulov</i>	OPTIMIZING GLOBAL SEARCH PROBLEMS USING GROVER'S QUANTUM ALGORITHM	201
<i>Toshpo'latov Sh</i>	VEB-ILOVALARDA HTTP XAVFSIZLIK SARLAVHALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	209
<i>Очилов Н, Набиев С</i>	АНАЛИЗ АРХИТЕКТУРНОГО СЛОЯ ИСТОЧНИКОВ ДАННЫХ DLP-СИСТЕМ ДЛЯ ГИБРИДНЫХ КОРПОРАТИВНЫХ СРЕД	215
<i>Toirov Sh, Asrayev M, Yo'ldoshaliyeva G</i>	KIBERHUJUM VA UNGA QARSHI KURASH	225
<i>Karabayev R.</i>	O'ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK HOLATINI BAHOLASH VA KIBERXAVFLARNING STATISTIK TAHLILI	229

5-SHO'BA: TA'LIMDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI		237
<i>Suyunov Y, Nazarov U</i>	RAQAMLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA MOLIVAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI	237
<i>Gulyamova Sh</i>	THE NEW SETUP IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING (ELT): THE INTEGRATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND STANDARD CLASSES	247
<i>Xashimov A, Mamatov A</i>	KADRLARNI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH UCHUN ELEKTRON BAHOLASH TIZIMLARI TAHLILI	252
<i>Mirzaev R.</i>	MATERIALLARNI ME'YORLASHTIRISH JARAYONIDA DATA ANALITIKA VA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	264
<i>Xaydarov S</i>	TALABALARNI TARBIYALASHDA JISMONIY VA MA'NAVIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARIDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI	269
<i>Anarkulova G, Mamajonova R.</i>	OLIY TA'LIMDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	278
<i>Sherova D.</i>	OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	284
<i>Mukhamadiyev A, Sh.A.Toirov</i>	OPTIMIZING EDUCATIONAL PROCESSES WITH GENERATIVE AI: INNOVATIVE INSTRUCTIONAL DESIGN AND AUTOMATED ASSESSMENT TOOLS	290
<i>Xoshimova M.</i>	AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KONFLIKTOLOGIK	301

	KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
<i>Olamova M.</i>	PEDAGOGIK LOYIHALASHDA TALABALARDA AXBOROT-KONSTRUKTIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI	306
<i>Mamadaliyev N.</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA “MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR” FANINING DASTURIY TA’MINOTINI PEDAGOGIK QO’LLASH METODIKASI	311
<i>G’aniyeva M. Yunusova I</i>	BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTI (ESG) – KORXONALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY AUDITI SIFATIDA	315
<i>Juraboyeva Sh.</i>	TA’LIM VA BIZNES INTEGRATSIYASIDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI.	320
<i>Anvarov D.</i>	O’ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O’QITISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO’LLANILISHI: METODOLOGIK TAHLIL VA SAMARADORLIK	326
<i>Usmonova M.</i>	TELEFONGA TOBELIK – NOMOFOBIYA: ZAMONAVIY DAVRNING PSIXOLOGIK ILLATLARI.	331
<i>Jo’rayeva N</i>	KORXONALARDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH: CRAFERS SHIRINLIKLAR KORXONASI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT	340
<i>A. M. Романова, С.А. Олимов</i>	ЗНАЧЕНИЕ СЕТЕВОЙ ФОРМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ УВО ДЛЯ ИНЖЕНЕРНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ	349
<i>Suyunova N</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH	354
<i>Уснитдинов М</i>	РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА).	361

6-SHO'BA: BIZNES JARAYONLAR VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.		368
<i>Axmedov X.D, Kamalov Sh.F</i>	SANOAT KORXONALARIDA OPTIMAL XARAJATLAR STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI	368
<i>Sodiqov M</i>	TOVARLAR VA XIZMATLARNI KENG TABAQALASHTIRISH YO'NALISHLARI	381
<i>R.B.Mirzayev</i>	REKLAMA TIZIMI VA SOTUV JARAYONINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI.	388
<i>Primov S, Akramov J</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	392
<i>Karabayev R.</i>	ИСККУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	401
<i>Абдураимова Н, Зоҳидов А</i>	ПУТИ ДОСТИЖЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЗА СЧЁТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНА	407
<i>М.Асраев, Ш.Ақбаров</i>	ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ФУНДАМЕНТ КОМПОЗИТНОГО БИЗНЕСА	417
<i>Abduraimova N, Zohidov A</i>	BARQAROR TARMOQLARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI BAHOLASHNING DOLZARB MODELLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	422
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLIGYALARNI JORIY QILISHNING SAMARADORLIGI.	430
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY MODELLARI TAHLIL QILISH	435
<i>Toxirov J.</i>	EKOLOGIK STANDARTLAR JORIY ETILISHIDA BUYRUQBOZLIK VA BOZOR MEKANIZMLARINING TA'SIRI	440

<i>Maxmudov J.</i>	O'ZBEKISTONNING "TASHQI QARZ ORQALI RIVOJLANISH STRATEGIYASI"	450
<i>Shoyev D, Abdullayeva G.</i>	BOSHQARUV SIFATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	459
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARINING IQTISODIY MOHIYATI, TASNIFI VA FAOLIYAT XUSUSIYATLARI	467
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORLARGA OLIB CHIQISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	471
<i>Narbayev Sh.K. Nabixonov S.</i>	BIZNES ETIKASIDAN KORPORATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH	480
<i>Muydinov N</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA IT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI	487
<i>Primov S, Shakirov X.</i>	DAVLAT TASHQI QARZI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	491
<i>Primov S, Shakirov X</i>	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.	498
<i>Bozorov J</i>	MEHNAT MIGRATSIYASINI KAMAYTIRISHDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY AHAMIYATI	505
<i>Mamajonov A</i>	STARTAPLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZLARI FAOLIYATI: JAHON TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	511
<i>Samatov A, Kushbakov B</i>	KORXONANING IQTISODIY SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONLARI	516
<i>X.D.Axmedov, Kamalov.Sh</i>	KORXONADA TEXNIKAVIY VA MEHNAT RESURLARINI BOSHQARISH TAHLILI	521
<i>Karabayev R</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT: NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	527
<i>Туракулов О, Асраев М,</i>	ЛУЧШИЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ ЛОГИСТИКИ	532

<i>Мирзаева О.</i>		
<i>Алимов О</i>	ФОРСИРОВАННАЯ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИЯ БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ИИ-ПОДХОД ДЛЯ ЭКСПАНСИИ НА ВНЕШНИЕ РЫНКИ	543
<i>Nazarov X</i>	OCHIQ BANK (OPEN BANKING) FAOLIYATINING XALQARO TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA QO'LLANILISHI	551
<i>Narbayev Sh.K, Nabixonov S</i>	ISHBILARMONLIK ETIKASINI RIVOJLANTIRISHNI KORPORATIV MADANIYATGA TA'SIRI	560
<i>R.B.Mirzayev</i>	TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SOLIQ HUQUQI MADANIYATINING AHAMIYATI	572
<i>Narbayev Sh.K, Axmadaliyev V.A.</i>	QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI MONITORINGINI YURITISHDA MASOFADAN ZONDLASH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	580
<i>Soliyev D</i>	SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH: AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI	590
<i>Samatov A, Allanov U</i>	SIFAT MENEJMENT TIZIMIDA NOMUVOFIQLIKLARNI ANIQLASH USULLARI	597
<i>Narbayev Sh, Abdufattoxova H</i>	MENEJMENT FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKTNING INNOVATSION YECHIMLARI	600
<i>Narbayev Sh.K, Abduqayumov A</i>	KORXONALARDA ESG (Environmental, Social, Governance) KO'RSATKICHLARINI JORIY ETISHDA MENEJMENTNING ROLI	605
<i>Primov S, Akramov J</i>	DAVLAT MOLIVASINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI	611

Ingliz tili muharriri: Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114